



XALQIMIZNING BAHOR FASLI BILAN BOG‘LIQ QADRIYATLARI.

Xo‘jaeva Feruza Rustamjonovna,

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi sektor mudiri

Amanova Hilola Baxtiyorovna,

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi yetakchi mutaxassisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606656>

Annotatsiya. Xalqimizning qadim va o‘rta asrlardagi ilg‘or ma‘naviy, axloqiy-madaniy va ilmiy merosidagi insonparvarlik, muhabbat, do‘stlik, mehnatni sevish, odamiylik kabi ma‘naviy qadriyatlarini targ‘ib qilish ham ijobiy axamiyatga ega. Ushbu jarayonda xalqimizning qadimgi diniy karashlari bilan bog‘liq ma‘naviy me‘rosni o‘rganish xam katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada xalqimizning bahor fasli bilan bog‘liq ayrim bayramlari, urf-odatlarini, marosimlari haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, Navro‘z bayrami, sumalak pishirish, lola sayllari haqida ma‘lumotlar berilgan. Bunday qadriyatlarni ayrimlari deyarli yo‘q bo‘lib ketgan, ayrimlari esa keyingi yillarda hayotimizga kirib keldi.

Kalit so‘zlar: Urf-odat, Navro‘z, chillak, tosho‘yin, sumalak, lola sayli, boychechak marosimi.

Annotation. Promoting the humanistic values reflected in the rich spiritual, moral, cultural, and scientific heritage of our people during the ancient and medieval periods—such as humanity, love, friendship, respect for labor, and kindness—also holds great significance. In this context, studying the spiritual heritage associated with the ancient religious beliefs of our people is of considerable importance. This article discusses several festivals, customs, and rituals of our people related to the spring season. In particular, information is provided about the celebration of Navruz, the tradition of cooking sumalak, and tulip festivals. Some of these traditions have almost disappeared, while others have re-emerged in recent years and returned to social life.

Keywords: Customs and traditions, Navruz, chillak, stone games, sumalak, tulip festival, boychechak ceremony.

Milliy urf-odatlar – millatning turmush-tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy madaniy hayotida o‘z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar ko‘rinishidir. Milliy urf-odatlar bizning xalqimizda o‘ziga xos tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lib, an‘anaviy va zamonaviy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Milliy urf-odatlar alohida olingan shaxs va millat doirasida shakllanib boradi.

Mustabid tuzum davrida ko‘plab urf-odatlarimiz eskilik sarqiti deb poymol qilindi, bu esa yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga milliy o‘zlikni asrab-avaylashga va shu orqali o‘zbek millatining ma‘naviy rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Milliy urf-odatlar millat va elatning tarixi, an‘analari, xalq og‘zaki ijodi, san‘at va adabiyoti, turmush tarzi va boshqa omillar ta‘sirida shakllanib, takomillashib boradi.

Xalqimizning davrlar osha sayqallanib kelgan urf odat, marosim va diniy tasavvurlari juda xam serqirra bo‘lgan. Bu udum va marosimlarda ularning yashash



tarzi bilan bog‘liq umumbashariy ezguliklar-insoniylik, yurti va ajdodlar me‘rosiga sadoqat, adolatparvarlik, jamoani, oilani muqaddas bilish, uning sha‘ni uchun kurashish kabilar xamisha e‘zozlab kelingan. Bu urf-odat, qadriyatlarda ajdodlarimizning milliy ruhiyati, ma‘naviy ongi va fe‘l-atvorining shakllari ham namoyon bo‘lgan. Hozirgi shiddatkor zamonda, o‘z milliy qiyofasiga ega, iymon va e‘tiqodi but avlodni kamol toptirishda boy ma‘naviy merosimizni xar tomonlama o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Xalqimizning qadimdan fasllar bilan bog‘liq ko‘plab urf-odatlar mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, bahor faslidagi urf-odatlar e‘tiborga loyiq. Zero, bahor-fasllar ichida eng go‘zal, eng nozigi bo‘lib, yer yuzidagi barcha mavjudot va butun borliqning uyg‘onish, yangilanish davridir. Nabototning qayta jonlanishi, yashash uchun kurashi–unishi, o‘sishi, ulg‘ayishi va rivojlanishi asosan bahordan boshlanadi. Bahor nafaqat tabiatga, balki insonlar hayotiga ham yangi umid va zavq ulashadi. Shu bois yurtimizda asrlar davomida ushbu fasl bog‘liq qadriyatlar shakllangan.

Shunday bayramlardan biri [Navro‘z](#) –yashnash, yasharish ayyomi, [tabiatning](#) uyg‘onishi bilan bog‘liq yangi kunning boshlanishidir. [21-mart](#) kecha va kunduz tenglashgan [kun](#) – [Yangi yil](#), ya‘ni Navro‘z bayrami sifatida [Sharq xalqlari](#) tomonidan keng nishonlanadi. U [dehqonlar](#) uchun ekin-tikin ishlarining boshlanish pallasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o‘tkazishgan. Navro‘z kunlari qishki manzillari – qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlari – yozloqlarga ko‘chib o‘tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qo‘sh solishgan. Jamoa-jamoa bo‘lib, hasharlar uyushtirishgan. O‘tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar o‘tqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navro‘z – yangi yil, yangi hayot qaynagan. Ajdodlarimiz Navro‘z bayramiga atab maxsus kiyimlar tikishgan va ularni kiyib, bayram qilishgan. Navro‘z taomlari ham o‘ziga xos bo‘lgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim taerlash ananaviy tusga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroki juda faol bo‘lgan. Ular Navro‘z bayramida turli ommaviy bayram o‘yinlari o‘ynaganlar. Ot o‘yin, chillak, qo‘g‘irchoq, tosho‘yin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar, bo‘y qizlar sumalak pishirish marosimida faol ishtirok etish uchun ancha ilgariroq tayyorgarlik ko‘rishgan.

Bu jarayonlarda turli-tuman xalq o‘yinlari, bahor qo‘shiqlari ijro etilgan. Kitobxonliklar, turli sovrinli o‘yinlar, musobaqalar tashkil etilgan. Ko‘pkari-uloq, kurash o‘yinlari, hayvon va parrandalar (xo‘roz, it, qo‘chqor) urishtirish, masxarabozlik, askiyabozlik, dor o‘yinlari, turli xil xalq tomoshalari o‘tkazilgan. Mir Alisher Navoiy hazratlari ham o‘z asarlarida: “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z”, deb bu kunni alohida yod etganlar.

Hozirgi davrda ham Navro‘z – mehnat, mehr-oqibat, insonparvarlik bayramidir. Bu kun marhumlarning qabrlari ziyorat qilinadi. Keksa, nogiron, yolg‘iz qariyalar, ota-onalar yo‘qlanadi. Kishilar bir-birlariga sovg‘a-salomlar ulashib, shirinliklar hadya etishadi. Ushbu kunni nafaqat Sharq xalqlari, balki millati, dini,



e'tiqodidan qati nazar, barcha bayram qiladi. Navro'z bayrami O'zbekistonda dam olish kuni, rasmiy bayram kuni deb qabul qilingan. Uni hozirgacha ham yoshlardan tortib yoshi keksa kishilar ham tantali tarzda kutib olishadi. Sumalak [turkiy](#) va [forsiy](#) xalqlar tomonidan asosan [Navro'z](#) bayrami kunlari pishiriladigan shirin taom turi. Asosan, [bug'doyning](#) yosh novdalari, [un](#), [yog'lardan](#) tayyorlanadi. Shuningdek, ba'zi milliy an'analarga ko'ra, tosh yoki yong'oq ham solib pishiriladi.

Sumalak servitamin, xushxo'r va tansiq taom bo'lib, qadimdan, ayrim ma'lumotlarga ko'ra 3000 yildan beri, bahorni kutib olish, dehqonchilik ishlarining boshlanishi arafasida, Navro'z bayramida tayyorlab kelinadi. XX asrning 90-yillaridan boshlab sumalak pishirish Navro'z bayramida, ayniqsa, ayollar o'rtasida katta tantana bilan amalga oshirilmoqda.

Bahor faslidagi bayramlardan biri [adir](#) va [dalalarda](#) lola ochilgan chog'da o'tkaziladigan sayl bo'lib, lola sayli deb atalgan. Ba'zi joylarda guli surx deb ham nomlanadi. Lola sayli o'zbek xalqining qadimiy udumlaridan biri bo'lib, Navro'z bayramidan keyin (aprelning oxiri — mayning boshlari) lola va lolaqizg'aldoq ochilgan vaqtlarda o'tkazilgan. Sayl bir necha kun davom etgan. Zarafshon va Farg'ona vohasida o'ziga xos bayram sifatida nishonlangan. Odatda, lola saylini xalq tomonidan saylangan "lolachilar" boshqarganlar. "Lolachilar" o'z do'stlari bilan saylning qachon va qaerda o'tkazilishini aniqlab, xalqqa xabar bergan. Sayl o'tkazilishidan oldin "lolachi" maxsus daraxt yoki daraxtning chiroyli shoxidan kesib olib, lolalar bilan bezagan. Keyin uni qishloq ko'chalaridan olib o'tgan. Buni ko'rgan odamlar ko'chaga chiqib, ko'ngliga tugib qo'ygan niyatlarini aytib, daraxtlar shoxiga turli mato parchalari, ro'molchalar bog'lashgan. So'ng "lolachilar"ga ergashib, o'yin-kulgi qilib, lolazor tomon yo'l olishgan. Belgilangan joyga kelishganidan so'ng "Gul daraxti" markazga o'rnatilgan va oqsoqollar duosi bilan bayram boshlangan. Abdurraxmon-i Tali'ning "Istoriya Abulfeyzxana" kitobida yozilishicha, bayramning ikkinchi kuni muqaddas mozar va qabristonlar ziyorat qilingan. Bunda erkaklar va ayollar alohida-alohida ziyoratgohlarga borganlar. Lola sayli hozirgi oldingi ramziy ma'nosini ma'lum darajada yo'qotib, o'yin-kulgi, sayl ko'rinishida saqlanib qolgan. . [1,b.11]

Xususan, Toshkentda lola ochilgan paytda bolalar quyidagi qo'shiqni kuylaganlar:

Oppoqjon dastidan,
Qizil gullar ochildi,
Qizil gulning xumchasi (g'unchasi),
Oppoqjonning bachasi,

O'zbek folklorida "Lola sayli" bilan bog'liq xalq qo'shiqlari ko'p uchraydi. Qo'shiqlarda lola "elning chiroyi" ekanligi, bu gul ochilishi odamlar diliga farax baxsh etishi, chaqmoqdan, sellardan qo'rqmay ko'kargan lola odamlarni ommaviy saylga chorlashi tarannum etilgan. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi tog' qishloqlarida har yili ko'klamda lola sayliga chiqish an'anaviy marosimlardan biri



hisoblangan. Ana shu marosim chog'ida ijro etilgan xalq qo'shiqlarida tabiatning ko'klamgi uyg'onishi, lola nafosati baxsh etgan ezgu tuyg'ular tarannum etilgan:

Lolachada ishim bor, hey lola,
Kissamda kishmishim bor, hey lola,
Kishmish bo'lsa mayliga, hey lola,
Qiz bolada ishim bor, hey lola.
Tom ustida nelar bor, hey lola,
O'rdak bilan g'ozlar bor, hey lola,
O'rdak ketib g'oz qolsin, hey lola,
Dushman ketib do'st qolsin, hey lola.

Tadqiqotchilarning fikricha, “Lola sayli”ning tarixiy asoslari O'rta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. San'atshunos G.A.Pugachenkova tomonidan tahlil qilingan qadimiy osori atiqalardan biri, fanda “Kvaspileevodan topilgan idish” (Rossiya federatsiyasining Perm shahri yaqinidagi Kvaspileevo qishlog'idan topilgani uchun shu nom bilan atalgan) nomli idishga chizilgan suratlarda tasvirlangan ayollar qo'lida lola ko'tarib turganligi ham bu gul bilan bog'liq odatlar qadimiyligidan dalolat beradi. (2.b-[18-19])

Boychechak marosimi – erta bahorda nishonlanadigan ushbu bayram bo'lib, mavsumning birinchi gullari, boychechak chiqqaniga bag'ishlab o'tkaziluvchi sayl. Marosim bahorning kelishini ifodalaydi va jamoat yig'ilishlari, qo'shiq va raqslar bilan nishonlanadi. Bahor bilan bog'liq "Lola", "Gul" kabi sayllar qatoridan „Boychechak“ marosimi ham o'rin olgan. Marosim tahlili qadimda qish va ko'klamning kurashini ifodalagan. Marosimlarda she'rlar aytilib qo'shiqlar kuylangan:

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayrondir,
Ayroningdan bermasang
Qozon-tovog'ing vayrondir.
Qattiq yerdan qazilab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak,
Navro'z oyda mo'ralab chiqqan boychechak,
Bola-bola, bola-bola, bola-bola boychechak. (3.b-[22])

Bugungi kunda O'zbekistonda bahor fasli bir qator muhim bayramlar bilan boy bo'lib, ular asosan yangilanish va xotin-qizlarni ulug'lashga qaratilgan. Asosiylari: 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami va 21 mart — Navro'z bayrami bo'lib, ular dam olish kunlari sifatida keng nishonlanadi. 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni, bahorning ilk bayrami bo'lib, onalar, opa-singillar va qizlar ulug'lanadi. 9 may esa “Xotira va qadrlash kuni” bo'lib, o'tganlarni yod etish va tinchlikni qadrlash kuni sifatida bayram qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek xalqi asrlar davomida o'ziga xos va xilma-xil urf-odatlar, qadriyatlarini yaratdi. Xalqimizining fasli bilan bog'liq qadriyatlari jozibadorligi, sermazmunligi bilan ajralib turadi. Zero, bahor o'zining ilk

“SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi



kunlaridanoq butun tabiat go‘zallikka, gullar iforiga burkana boshlanishi bilan boshqa fasllardan farq qiladi. O‘zining tarovati, go‘zalligi bahor insonlarni ezgu ishlar qilishga, mehr-muhabbat ulashishga undaydi.

O‘zbekiston ahli dunyodagi mehmondo‘st va ochiqko‘ngil xalqlardan biridir. U har qanday yangilik uchun ochiq, lekin shu bilan birga uning ildizlarini unutmaydi, boy tarix va dastlabki an‘analarni diqqat bilan saqlaydi va eslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-tom. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti. 2005-yil.
2. Abdullaev U. “Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar”.-T.; “Yangi asr avlodi” 2005-y.
3. Abdurraxman-i Tali’, Istoriya Abulfeyzxana, T., 1959-y
4. Sokolov Yu.A., Tashkent, tashkentsi i Rossiya, T., 1965-y
5. “Moziydan sado” jur3nali. 2005-yil, 1-son.
6. Internet ma’lumotlari.

